

Hovlimizdan oqib o'tadigan ariq labidagi bu daraxt qishlog'imizda yagona hisoblanardi. Daraxtning bo'yi uyimiz tomi bilan teng edi. U eniga uncha tarvaqaylab ketmagan, xuddi butalganday qaddi tik, tanasi va shoxlari esa rahmatli bobomning hassasiday sipsilliq edi. Daraxtning kishini hayratga soladigan bir jihatni bor edi. U yilda ikki marta bahor bilan kuz boshlarida gullar, biroq meva tugmas edi.

Bahorda daraxtning bikarang g'uj-g'uj g'unchalari hovlimizga o'zgacha fayz baxsh etar, uning shoxidan qushlar arimas edi.

Kuzning boshlarida gullashi chindan ham hayratomuz edi, odamlar bunday paytda uning atrofida o'ralashib "nahotki, daraxt ham kuzda gullasa", deya ko'zlariga ishonmay, qo'llari bilan nafis g'unchalarni ushlab-ushlab ko'rishar edi.

Yana shunisi qiziqliki, hech kim, hatto otam ham uning qanaqa daraxt ekanini bilmas edi. Biz bolalar uning ensiz kichik barglariga, tekis shoxlariga qarab gilosga o'xshatardik va o'zimizcha uni gilos deb atardik. Aslida gilos emasligini bilardik... Daraxt otamga bobo meros yodgorlik hisoblanar, shu sababli uni nihoyatda avaylardi. Va bizdan ham shuni qattiq talab qilardi.

Yozning o'rtalari edi. Onam singlim va akamni ergashtirib qo'shni qishloqda yashovchi bobomnikiga mehmonga ketishdi. Uyda otam bilan men yolg'iz qoldik. Supada yonboshlab yotgan otam botayotgan quyoshning alvon shafaqlarida tovlanib turgan daraxtimizga xayolga cho'mgancha tikilib turardi. Shunda men:

- Ota, nega daraxtimiz hech meva tugmaydi?- deb so'radim. Savolimdan otam ajablandilar, shekilli, ancha vaqt xuddi nimadir qidirganday yuzimga tikilib qoldilar, so'ng, "Mevami? Tugadi, o'glim. Mana men, sen, onang, singling va akang shu daraxtning mevalarimiz...B"

Tabiiyki, men otamning gaplarini unchalik tushunmadim, buni o'zi ham sezdi shekilli, qo'l bilan boshimni silab, ""Bu gaplarning ma'nosini katta bo'lganingga tushunib olarsan", dedi va boshqa bu haqda og'iz ochmadi.

Otam nafaqat yolg'iz bu daraxtni, umuman yashillikni sevar edi.

Eshak aravaday imillab ketayotgan eski poezdning old vagonlaridan biri jazo mudatini o'tab qaytayotgan mahbuslar bilan to'la edi. Vagonda shunday bir g'ayri-tabiiy jimlik cho'kkani ediki, ular bir-bir bilan past ovozda shivirlashib gaplashishar, ko'plari esa derazadan tashqariga qaragancha chuqur xayolga cho'mib borishar edi. Vagonning oldindi tomonida soch-soqoli o'sib ketgan, gavdali bir mahbus o'ng tirsagini deraza raxiga qo'nib, tashqaridan ko'z uzmay borardi. Poezdning imillab yurishi jon-jonidan o'tib ketgan, "Tezroq manzilga yeta qolsaydik...B" degan o'y ichini tirnaydi. U toliqdi chog'i, derazadan surilib taxta o'rindiqqa o'tirdida, nonushta qila boshladi.

Tamaddi qilib olgach, u yana vagon derazasi qarshisiga keldi, oynadan boshini yelkasigacha chiqarib, oldinga qaradi, chamasi, besh yuz metrlar narida shundoq temir yo'l labida nimadir qorayib ko'ringonday bo'ldi. Nihoyat, o'sha narsa aniq-tiniq ko'rindi: yaqinda qiyg'os barg yozgan daraxt ekan. Haligi kishi o'zini bosolmay, bongani shosha-pisha ichkariga oldi-da, ko'zlarini chaqnatib vagondagilarga hayqirdi: "Og'aynilar, yashillik! Oldinda qiyg'os barg yozgan daraxt", deya u o'zini eshikka urdi.

Bir zumda vagon to's-to'polon bo'lib ketdi, hayqiriqdan jonlangan kishilar bir-birlarini itarib-turtib, shovqin ko'targancha eshik tomonga otlishdi... Poezd yo'l bo'yidagi daraxt qarshisidan o'tishiga o'n-yigirma metrlar qolganda boyar daraxtni birinchi bo'lib ko'rgan kishi o'zini poezdan yerga tashladi, uning ortidan qolganlar... Ular Hizrga yo'liqqanday, daraxt shoxlariga osilishar, uzoq qamoq yillarda dillarida tugib yurgan eng ezgu so'zlarini aytishib, daraxt barglarini ko'zlariga tavob aylashar, yuzlariga ko'zlaridan tinimsiz oqayotgan shukronalik yoshiga yuvishar edi...

Onamning aytishicha, o'sha vagon derazasidan turib daraxtni birinchi bo'lib ko'rgan kishi - mening otam ekan. U yigitlik paytda tuhmatdan olti yilga qamalgan ekan...

Bizning avloddan-avlodga o'tib kelayotgan yagona yodgorlik, otamning aytishicha, hovlimizdag'i mana shu yilda ikki marta gullaydigan daraxt eqan. Bobomning bobosimi, balkim uning ham bobosimi, xullas, kunlardan bir kun shom mahali qo'lidagi hassasini ariq labiga suqib, o'zi tahorat olgani o'tiribdi. Bobom tahoratni olib, hassaga qo'l uzatmoqchi ekan, shu payt mo'b Þjiza yuz bergenini ko'rib, hayratdan yoqa ushlab qolibdi ariq labiga suqilgan hassa nish otib ko'karayotgan emish... Shu zahotiyog bobom "Ey, jonivor, sening taningda namlik bor ekan-u, men shuncha vaqt gunohga botib seni sudrab yuribman... Mayli, unib-o'sgin", deya hassasini shu yerda qoldiribdi. Shu-shu to dunyodan ko'z yumguncha hassa ehtiyoj sezmabdi. O'lim to'shagida yotganda esa o'g'illariga "Mening hassamdan ko'kangan ana u daraxt ko'p xosiyatlari. Uni sizlarga qoldiraman, ko'z qorachug'laringdagg asranglar... Kuloqlaringda bo'lzin kimki bu daraxtni xor qilsa, o'zi ham dunyodan xor-zor bo'lib o'tadi", deb vasiyat qilib, oq fotiha bergen ekan.

Daraxtimizning o'tmishi haqidagi bu gaplar biz bolalarga, xuddi ertakka o'xshab tuyular, unga ishonish-ishonmasligimizni bilmasdik.

Bir kuni otamga: "Nega daraxtimiz boshqa daraxtlarga o'xshab tomiridan ko'paymaydi? Agar ko'payganda ko'chatlarini kovlab olib, hovlimizning boshqa yerlarita ham o'tqazar edik", dedim.

- Ko'paymaganiga sabab, - dedi otam, - bu daraxtning tomiri boshqa daraxtlar singari yonboshga emas, yer qa'riga tik o'sadi...

Buning yana bir ajoyib xussiyati - boshqa daraxt ildizlari bilan chatishmaydi hamda o'ziga keraqli ozuqani o'zi topib, yer ustidagi tanasini toza va mustahkam saqlaydi.... .

Otam daraxtga bolta yo qaychi urishga sira-sira ruxsat bermas, buni u og'ir gunoh, shafqatsizlik, deb bilar edi. Bizdan sal uzoqroqda yashaydigan, doimo soyabonli kepka kiyib yuradigan Muhojir laqabli kishi bilan otam o'rtasida nifoq ana shu daraxt tufayli kelib chiqdi. Muhojir qishlog'imizga chetdan kelib qolgan, uning nasl-nasabini, kimligini, yurtini qishloqda birov bilmas, bu haqda o'zi ham gapirmas edi. Muhojir degan nomni unga qishloqdagilar qo'ygandi. Balki bir paytalar bu nom unga og'ir botgandir, lekin keyin u bunga shu qadar o'rganib ketgandiki, xudi ota-onasi qo'yib ketgan ismdan ardoqli bo'lib qolgandi.

Shu Muhojir bir kuni hovlimizga qaychi ko'tarib kirib keldi-da, otamdan "Ana shu daraxtingizdan payvandlik bersangiz?" deb so'radi.

- Payvand solganingiz bilan, baribir, uni ko'kartirolmaysiz, - dedi otam uni xushlamay.

- Siz payvandlik beravering, u yog'i o'zimning ishim, - dedi Muhojir bilag'onlik bilan.

- Payvand qilishdan maqsad nima? Axir bu daraxt meva bermasa... - dedi otam daraxtga tig' urdirgisi kelmay.

- Shunchaki bir havas-da... Nima, bizning hovlida ham bitta shunaqa daraxt o'ssa yomon-mi?- dedi Muhojir.

- Bu sizga, - dedi otam jahl bilan, - havasga o'stiradigan daraxt emas! Undan keyin ovora bo'lman, baribir, payvandlik bermayman!

Shunday deya otam indamay nari ketdi.

Muhojirning g'ayrilpgi qo'zidi, lekin hech narsa demay ko'zlarini ayyorona qisdi-da, bir otamga, bir daraxtga qaragancha hovlimizdan chiqib ketdi. Usha kuni borliq tun ko'rpasiga burkanguncha otam daraxt yonidan ketmadi, shundan so'ng ikki-uch kun

This is not registered version of TotalDocConverter  
ta bishda qo'shimcha surʼatda esa oʻsishiga gaplashimay ko'ydi.

Yerdan qor va zax ketib, o'rniga quyoshning hovuri endi inayotgan payt borliqda uzilish, o'lik davr hukm suradi. Chor-atrof qipyalangoch, sholday ruhsiz. Bunday paytda odamda beparvolik, lanjlik paydo bo'ladi. Ana shunday behalovat kunlarda otam "Bolalarim, yana yigirma kuncha zerikasiz, so'ng daraxtimiz barg yozib koladi", deb dalda berardi. Shunday kunlarning birida oqshomga yaqin hovlimizga shaharda o'qiydigan katta opam kirib keldi. Daf'atan uni taniyolmay qoldik u taqimiga uradigan tim qora sochlarini yelkasidan kestirib-di, egnida beli bo'g'ma, badaniga yopishib turgan, tizzadan keladigan oq matodan ko'ylik. Opam, o'ziga hayron qotib tikilib turganimizni sezdi-yu biroq sir boy bermay oldingiday sharaqlab kulganicha otamning quchog'iqa tashlandi. Otam uni xushlamaygina peshonasidan o'pib qo'ydi. Odatdagiday navbat menga keldi, opam o'ng yuzimdan "cho'lp" etib bir o'pdi-da, qo'limga tillarang qog'ozga o'rog'liq konfetni tutqazdi. Otama o'g'rinchha bir qarab, opamning sovg'asini oldim.

Tunda esa hamma uqlab qolganidan so'ng otam bilan onamning opam to'g'risidagi gaplari qulog'pmga chalindi:

- Qizimiz ham sochini kestiribdi... - dedi onam past ovozda.

- Ko'rdim... Hamma ayb o'zimizda, tarbiyasini to'gri berolmabmiz, - dedi otam "uf" tortib.

Otam betoblanib qolganda daraxtimizning kurtak yozishiga o'n kunlar qolgandi. Shomga yaqin ketmonni ko'tarib daladan qaytgan otam "etim uvishib ketayapti", deya ko'rpgaga o'ranib oldi. Kunduzi ish joyida nam yerga yotib biroz mizg'igan ekan.

Onamning "vrach chaqiraylik" deganiga sira ko'nmadni. "Ertalabgacha o'tib ketar, ustimga ko'rpalarini qalinroq yopinglar", dedi u. Lekin tuni bilan "oh-voh" qilib, ertalab belida huruj qilayotgan ogriqning zo'ridan butunlay o'rnidan turolmay qoldi.

Onam vrach chaqirdi va otamni kasalxonaga yotqizadigan bo'lismi. Uni hovlimizdan olib chiqayotganda "daraxtga ko'z-quloq bo'linglar", deya u qayta-qayta tayinladi.

Bu gapdan biz bolalar qandaydir hushyor tortib qoldik.

Ba'zan kun ora, ba'zan har kuni oilamizdan kimlar kasalxonaga borardi. Tabiiyki, otam eng avval kelgan kishidan daraxt haqida so'rardim. Oradan hafta o'tdi, lekin otamning kasali tuzalay demas, kasalxonaga qanday keltirilgan bo'lsa, shu alfozda o'rnidan qimirlay olmasdan, shiftga termulib yotardi. Otamnnng hisobi bo'yicha shu kunlarda daraxt kurtak chiqarishi kerak edi. Lekin uning tanasida biron jonlanish bo'lganini ko'rmasidik, u qishda qanday yalang'och holda bo'lsa, shundayligicha qaqqayib turardi. Biz uchun eng og'iri kasalxonaga borish va otamning ilinj to'la ko'zlariga qarash edi.

Bahor yarimlay deb qolganda ham daraxtimizda jonlanish sezilmadi. Endi otam ham u haqda so'ramay qo'ydi, faqat vrachlarga "tuzalmasam ham uyimga ketaman", deb yosh boladay xarxasha qila boshladi.

Men bu gapni maktabdan uyga qaytayotganimda Muhojirning qizidan eshitdim.

- Endi bizning ham sizlarnuv hovlida o'sadigan daraxtga o'xshash o'z daraxtimiz bo'ladi, - dedi Muhojirning qizi maqtanish uchun lablarini cho'chchatyrib.

- Hech-da, - dedim qovog'imni uyib, - bizning daraxtimiz boshqa hech qaerda o'smaydi...

- Ie, hali xabaring yo'qmi?- dedi Muhojirning qizi chindan ajablanib. - Otam, ana u daroz akang bor-ku, o'shangga zanjiri uzun eski cho'ntak soatini bergen edi, u evaziga daraxtlaringni shoxidan bir emas, uchta kesib keltirib berdi. Otam allaqachonlar payvand qilib qo'yanlar...

Uning gaplaridan jahlim chiqdi va sezdirmay biqiniga tirnoqlarimni botirib, qattiq chimchilab oldimu, shu zahoti uyla tomon chopdim. Muhojirning qizi chinqirib yig'laganicha qoldi.

Upkam ogzimga tiqilgudek bo'lib hovlimizga kirib keldim va daraxtimiz ostiga to'shalgan o'rinda hushsiz kishiday yotgan otamga ko'zim tushib bir zum o'zimni yo'qotib qo'ydim, so'ng Muhojirning qizidan eshitganlarimni unga oqizmay-tomizmay aytdim.

Otamning ko'ngli battar xira tortdi, u tirsaklariga suyanib yostiqdan boshini ko'tardi va qon to'lgan ko'zlar bilan hovli yuzasidan akamni izladi. Akam hovlimizga kiraverishda bir oyog'i siniq kursida boshini quiy egib o'tirar edi.

- Shu gaplar rostmi?- dedi otam unga xirillagan ovozda.

Onam, singlim va men nafasimizni ichimizga yutganimizcha akamning og'zini poylar edik. Akam qo'rqapisa boshini ko'tarib otamga bir qaradi-da, so'ng yana quiy egdi...

- Demak, rost!- dedi otam qahr bilan, so'ng dona-dona ohangda, - ikkinchi bu hovlida qorangni ko'rmay.

- Yo'qol! - deb hansiraganicha boshini yostiqqa tashladi.

Hovlidan akamning qanday chiqib ketganini ko'rmay qolibman, onam bilan singlimning unsiz yig'layotganidan angladimki, akam ketibdi...

Buni otam ham sezdi, lekin uning yuzida bir qahr qotib qolgandi.

- O'g'lim! - dedi otam menga, - daraxtning ustiga chiqib, kesilgan shoxlariga qarachi...

Men ko'z ochib yumguncha daraxtga chiqib oldim rostdan daraxtning uchta shoxchasi kesilgan ekan. Kaychi o'tmas bo'lganidan shoxlar tishlab tortilganday, g'ajib tagalangan edi.

- Topdingmi? - dedi otam, - unda yaxshiplab razmsolchi, namlik boryaga?..

Shoxlar qurib qolgan edi. Men otamdan ko'zlarimni olib qochdim...

- Endi pastga tush, - dedi otam va bolta keltirishimni buyurdi.

Men o'tinxondan bolta keltirdim.

- Daraxt tanasini ozroq tilchi!- dedi otam. Daraxt tanasidan bir payraha o'rnicha chamasi kesdim. Otam yana tirsaklariga suyanib yostiqdan o'mganini ko'tardi va o'tkir nigohini daraxtning kesilgan joyiga qadadi... Uning yuzi avval xom suriday bo'zardp, keyin boshi "shilq" etib yostiqqa tushdi.

- Belkurakni olib kel, endi daraxtning ostini kavla!- dedi u shivirlab.

Men daraxt ostidan bir belkurak tuproq kovlab olgan edim, dimog'imga qandaydir badbo'y hid urildi, engashib tuproqqa yaxshiroq razm tashladim unga qandaydir sarg'ish narsa singib ketgan edi. Otam ming azob bilan, tipirchilay-tipirchilay o'rnidan qo'zg'aldi va qaltiroq qo'lllarini cho'zib men kovalgan tuproqdan bir siqim olib, ko'ziga yaqin keltirdi-da

- Ostiga dori sepishgan ekan, vahsiylar! - dedi u ilondon vishillab va daraxt poyiga sudralib keldi-da, tuproqni sidirib, tomirlarini ushlab ko'rdi. Tomirlarni daraxlarning tiriklik belgisi - namlik butkul tark etmagan edi...

Otamning yuzida umid shu'lalandi...

- Oz bo'lsa-da, hali vaqt bor ekan. Endi oyoqqa turishim kerak, - deb pichnrladi u daraxt tomirlariga qarab...